ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Ganiyev	4	Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish: jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil
M. Pardayeva	13	Yangi o'quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvi: strategik ustuvorliklar va boshqaruv amaliyotining diagnostik tahlili
A. Xolmurodov	22	Pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish: muammolar, huquqiy asoslar va istiqboldagi yo'nalishlar (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi misolida)
X. Nurmetov	26	Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari
U. Xasanov	30	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
U. Toxirov	33	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "PBL" va "Sun'iy intellekt" vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik muammolari va ularning yechimlari
D. Kamoljonova	38	Mutolaa sotsiometrik munosabatlarni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida
B. A'zamov	42	Multimedia texnologiyalari orqali talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish
R. Quziyev	46	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
D. Mo'ydinova	50	Talabalarda shaxsiy e'tiqodini shakllantirish texnologiyasi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	53	Uslubiyatning fonetik vositalari
D. Il'yasova	58	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
N. Kamolova	61	Kimyo ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
M. Kenjayeva	70	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari
D. Sadikov	74	Organik kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Sayidova	79	Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik ta'lim mazmunida ilg'or texnologiyalarning aks etishi
J. Buriyev	83	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish
U. Toxirov	86	Oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (pbl) texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashning pedagogik salohiyati

N. Temirov, X. Sirojiddinova	91	O‘quv jarayonini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish
		TA’LIMDA MENEJMET
Q. Almardanov	94	Maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonlarini optimallashtirish
		TA’LIMDA IQTISODIOT VA MOLIYALASHTIRISH
N. Boymuradov	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy boshqaruv modeli
A. Boltaev	109	Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
N. Dushayeva	115	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari
		PSIXOLOGIYA
X. Toshturdieva	119	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini deontologik qobiliyatlarini shakllantirishning hozirgi holati
M. Muzaffarova	127	Raqamli jamiyat sharoitida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasi va ota-onalik kompetentligining psixologik-pedagogik determinantlari
D. Adilova	131	Jamoadagi konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv murosaga olib kelishning zamonaviy mexanizmlari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Zayniddinova	135	Markaziy osiyoda suv resurslari muammosi va barqaror boshqaruv strategiyalari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Xoliqulova	138	Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi

Dilfuza KAMOLJONOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti
matbuot kotibi, p.f.b.f.d.(PhD)

MUTOLAA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MADANIY VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda bolalar kitobxonligining o‘rni, mutolaa jarayonini o‘quvchining fikrlash qobiliyati, nutqi, atrofidagilar bilan munosabati va empatiyasiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Madaniy mexanizm, sotsiometrik munosabatlarini rivojlantirish, bolalar kitoblari, empatiya, qahramonlar va xarakter xususiyatlari, nutq va fikrlash qobiliyatining o‘sishi.

В статье рассматривается роль детского чтения в развитии социометрических отношений между учащимися на основе культурологического подхода, а также влияние процесса чтения на мыслительные способности, речь, отношения с окружающими и эмпатию учащегося.

Ключевые слова. Культурный механизм, развитие социометрических отношений, детские книги, эмпатия, герои и черты характера, рост речи и мыслительных способностей.

The article discusses the role of children's reading in developing sociometric relationships between students based on a culturological approach, and the impact of the reading process on a student's thinking abilities, speech, relationships with others, and empathy.

Key words. Cultural mechanism, development of sociometric relationships, children's books, empathy, characters and character traits, growth of speech and thinking abilities.

Kitob mutolaasi jarayonida o‘quvchilarning empatik qobiliyati ya’ni boshqalarning his-tuyg‘usi, ichki kechinmalarini tushunish va baham ko‘rish qobiliyati shakllanadi. Kitobxon mutolaa jarayonida o‘zini asar qahramonlari obrazida tasavvur qiladi. O‘quvchi o‘qigan ma’lumot va haqiqiy hayotdagi ma’lumot chap miya sharida qayta ishlanadi. Nutq uchun mas’ul bo‘lgan chap miya sharining yuqori qismida asar qahramoni aslida nima qilyapti deb o‘ylashga majbur qiladigan jarayon kechadi. Turkiyalik pedagog, bolalar kitoblari bo‘yicha mutaxassis Duygu Yamanning fikricha bu holat kunning aksar qismini gadjetlar bilan o‘tkazayothan bolada sodir bo‘lmaydi. Ya’ni bola bosma shakldagi kitobdan olgan ruhiy, nutqiy, aqliy rivojini gadjet orqali o‘qigan vositasidan ololmaydi. Psixologiyada bu hodisa “bilimlarni umumlashtirish” deb nomlanadi .

Kitobxonlik ko‘nikmasi – deb kitob o‘qish qoidalaridan boxabar bo‘lish, mutolaaga qiziqish, kitobxonning ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asarni) tanlash, kitob o‘qishga odatlanish, bu harakatning izchil va uzluksiz davom etishi, o‘qigan kitobning mazmunini anglash, kitob mutolaasidan keyin taassurotlarni ifoda etish ko‘nikmalarning malakaga aylanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat natijasiga aytiladi.

Mutola bilim olishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, olamni idrok etish, o‘rganishda kitob mutolaasi asosiy o‘rin tutadi. Kitoblar tematik, janr jihatdan va yosh xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi.

Birgalikda kitob o‘qish va muhokama qilish – o‘quvchilar o‘rtasida yaqinlikni oshi-

radi, muloqotni rivojlantiradi, ijtimoiy pozitsiyalarni yumshatadi.

Bolalar adabiyotining dastlabki namunalarini o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil qiladi. Zamonaviy bolalar kitobining tarixi yaqin o‘tmishga borib taqaladi. Badiiy adabiyotlar, kitoblar dastlab kattalar uchun nashr qilingan bo‘lib, XVII asrga kelib bolalar uchun ta’lim ommalashishi kerakligi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu borada chex pedagogi va yozuvchisi taniqli olim Yan Amos Komenskiyning hissasi kattadir. Komenskiy yashab o‘tgan davrlardan boshlab bolalarga atalgan kitoblar ommashib kitoblarning asosiy maqsadi didaktikaga qaratildi. Ilk bolalar kitoblari ertak janrida shakllangan. “Ertak” so‘zining lug‘aviy ma’nosi aytib bermoq, hikoya qilmoq degani. Shundan kelib chiqib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarining eng qadimiy namunalarida ham xalqning orzu, umid, maqsadlari ifoda etiladi. Masalan, “Ochildasturxon” to‘kin hayotni ifodalasa, “Zumrad va Qimmat” ertagida mehnatsevarlik, rostg‘ylikning mukofoti yaxshilik, dangasalik va tanballikning mukofoti yomonlik, “Ur to‘qmoqda” – yolg‘onchilikning oqibati to‘qmoq ekanligi bilan izohlanadi.

Asar qahramonlari obrazi asosida o‘quvchi o‘zida bag‘rikenglik, mehr-shafqat, tog‘rilik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. “Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Ur to‘qmoq” kabi o‘zbek xalq ertaklari, “Sariq devni minib” (X.To‘xtaboyev), “Meshpolvon” (A.Obidjon), “Kokilli ilon” (M.Xamidova), Z.Ibrohimova “Alisher va mehmon chumoli”, “Quloqsiz filcha” (D.Kamoljonova) asarlari kitobxonda mana shunday fazilatlarni tarbiyalovchi badiiy asarlar hisoblanadi. Kitobxon o‘quvchining dunyoqarashi keng bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi yakka tartibda, ommaviy tarzdan, elektron yoki audio shaklda bo‘lishi mumkin. Kitob aql va tafakkurni chiniqtiradi, so‘z boyligini oshirib, kishilar bilan muloqotni yaxshilaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasi tanlab olindi:

1. “Sinfdan tashqari” kitobxonlik mashg‘ulotlariga qaratilgan matnlar o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo‘lishi.

2. Mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyada maqsad, tizimlilik, texnologiyani qayta qo‘llash orqali ijtimoiy samaradorlikka erishish.

3. Sinfdan tashqari kitobxonlik mashg‘ulotlarida milliy qahramonlar Zumrad – Qimmat, Kenja botir, Egrivoy – To‘g‘rivoy ertak qahramonlari obrazlari misolida interfaol darslarda “Insert” texnologiyasi asosida rolli o‘yinlarni amaliyotga tatbiq etish.

4. Qahramonlik obrazidagi ertak, hikoya, qissa – Zumrad, To‘g‘rivoy, Jimjiloq Botirning ijobiy fazilatlari haqida o‘qish orqali o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi.

5. Egrivoy, Qimmatxon misolida salbiy qahramonlarni yaxshi qahramonga aylanish uchun qanday salbiy odatlardan voz kechishini kves topshiriqlar asosida shakllantirish.

6. Kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid kvestlarda ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish.

O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmlarini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasini ishlab chiqish tadqiqotning asosini tashkil etadi. Mazkur jarayonni milliy sharoitda samarali tashkil etishda milliy kontent alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili “milliy kontent xalqning ertaklari, rivoyatlari, maqollari, dostonlari, tarixiy va adabiy manbalari bo‘lib, o‘quvchilarni ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan kamol toptiruvchi ta’limiy resurslar majmui hisoblanadi”, deb ta’kidlashga asos bo‘ldi.

Milliy kontent vositasida kitobxonlikni rivojlantirish, bir tomondan, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash kabi kognitiv jarayonlarni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, mehr-oqibat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek, milliy ertak va hikoyalarni sahnalashtirish, “Qahramonni tanla”, “Rolli o‘yin”, “Insert” kabi interaktiv metodlar, “Muloqot”, “Tushunchalar tahlili” (Insert), “Kvest” pedagogik texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarda kitob mutolaasini qiziqarli va mazmunli faoliyatga aylantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktab, oila, jamiyatdagi muhit muhim rol o‘ynaydi. Oilada ota-ona, bobo-buvi, opa-singil, aka-uka kitob mutolaasiga qiziqsa, o‘qigan adabiyotlarini oilaviy tahlil qilsa, o‘quvchida mutolaaga refleksiya hissi paydo bo‘ladi va bu oilaviy an’anaga aylanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi darslikdagi materialga qo‘shimcha tarzda badiiy va ilmiy kitoblardan ijodiy topshiriqlar bersa, sinfda kitobxonlik muhiti shakllanadi.

O‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari folklor namunalari, milliy qahramonlar haqidagi asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tarkib topgan bolalar kontenti vositasida rivojlantirish, ushbu badiiy adabiyot namunalarini “O‘qish savodxonligi” darsligi, “Tarbiya” fanlariga integratsiyalash, oila, mahalla va maktabda kitobxonlik muhitini tashkil qilish, kitobxonlikni targ‘ib etuvchi ijodiy-badiiy kechalar tashkil etish, yozuvchi-shoirlar bilan uchrashuv, kitob do‘konlari, kutubxonalarga muntazam va davomli borish, mutolaani tashkil etish orqali o‘quvchilarni mutolaaga qiziqtirish, ijtimoiy qadiriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalash vazifasini maqsad qilib qo‘ymoqda. O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi tadqiqot ishi mazmuni quyidagilardan tarkib topadi. Badiiy adabiyot va folklor namunalari vositasida, zamonaviy kontentlar orqali o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini oila, mahalla va maktab muhitida rivojlantirish, ularning hamkorlikdagi faoliyatida zanjir mexanizmini ishlab chiqish, kichik yoshdagi o‘quvchilarida o‘qigan kitoblari yuzasidan tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy ehtiyojlarini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash joizki, jamoaviy suhbat asnosida kitoblarni o‘qish, obrazlarni yoki voqealarni muhokama qilish o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni egallash va amal qilishga yo‘naltirishda alohida o‘rin egallaydi. Bunday suhbatlar jarayonida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari haqidagi fikrlarini bayon qiladi, bir-biri bilan o‘zaro fikr almashadi, o‘z g‘oyalari, qarashlarini bayon etadi, asar qahramonlarining harakatlariga, fikrlashiga baho beradi, tanqidiy va mantiqiy xulosalar chiqaradi, o‘zaro munozaraga kirishadi, shaxsiy nuqtayi nazarlarini bayon qilib, bu masalada o‘z pozitsiyasini belgilaydi. Bunday suhbatlar kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashda muhim komponent hisoblanadi.

O‘quvchilarning kitobxonlik vositasida ijtimoiylashuvining asosiy omilidan biri o‘zi o‘qigan yoki o‘qiyotgan kitobidan chuqur ta’sirlana olishi va o‘zidagi taassurotlarni muloqot, munozara jarayonlariga tatbiq eta olishidir. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob qahramonlari, ular amalga oshirgan ishlar, ular duch kelgan vaziyatlarni oilada, jamiyatda, sinfda o‘z yaqinlari, tanishlari, do‘stlari bilan muhokama qilishi o‘quvchini ijtimoiylashuviga jadal ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob mazmunini anglab etsagina, unda munosabat, muhokama, baho, xulosa kabi fikrlar amaliyoti vujudga keladi. U kitobning asosiy mazmunini, g‘oyasini, natijasini o‘z atrofidagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari, oila a’zolariga targ‘ib qila oladi, so‘zlab beradi, targ‘ibotchiga aylanadi va o‘zining ijtimoiy faolligini ko‘rsatadi.

XX asr oxirlariga kelib bolalar kitobxonligi tushunchasini va amaliyoti, noshirlik faoliyati butunlay o‘zgardi. Zamonaviy bolalar kitoblari bugun bu adabiy, ilmiy-ommabop, badiiy, ijodiy asar bo‘lib, bolalarning yosh, psixologik, aqliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolalar uchun mo‘ljallangan to‘plam sanaladi.

Ilmiy-ommabop adabiyotlar konkret dalil va asoslarga tayanib yoziladi. Xorijda bunday adabiyotni non-fantastik – sarguzashtdan yiroq, badiiy to‘qimadan xoli asar deb ta’rif beriladi. U real hayot haqidagi dalillar yoki fikrlarni etkazish uchun yoziladi. Audio yoki videoda mavzu bo‘yicha asosli ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyati paydo bo‘lgandan beri ilmiy-ommabop asarlar faqat yozma matn bilan cheklanmay qolgan.

Badiiy adabiyot esa ijodkor (yozuvchi, shoir)ning ijod mahsuli hisoblanadi.

Asotir (mif)lar badiiy adabiyotning ilk namunalari hisoblanadi. Badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, demak, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisa, faqat bunda bilishning san’atga xos yo‘lidan boriladi.

Bolalar uchun badiiy kitoblar, turlari va badiiy kitoblarga qo‘yiladigan talablar:

– badiiy kitoblar bolaning dunyoqarashi va tassavurini boyitib, undagi ijodkorlik (kreativlik) qobiliyatini rivojlantiradi.

– bolaning nutqi rivojlanib, so‘z boyligi ortadi.

– rivoyat, ertak, cho‘pchak, asotir va hikoyalarda tilga olingan biron-bir voqea hayotiy yoki to‘qima bo‘lishidan qat’i nazar, qahramonlarning xatti-harakati va fe’l-atvori kitobxonni voqea-hodisa va harakatlardan saboq chiqarishga undaydi. O‘zbek xalq ertaklaridan “Ur to‘qmoq” asarini misol qilib keltirsak, ertakda chol laylakka yaxshilik qiladi. Bu yaxshilikdan biron bir manfaat ko‘zlamaydi. Laylak ham chol qilgan yaxshilikni qaytarmoqchi bo‘ladi. Unga “Qaynar xumcha”ni sovg‘a qiladi. Bu ertakning pedagogik ahamiyati shundaki, bolalar yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligini o‘rganadi. Cholni uchratgan ayyor boy esa sehrli xumchani oddiy xumchaga almashtirib qo‘yadi, ertak yakunida qilgan qing‘ir ishlari evaziga ur to‘qmoqdan jazosini oladi. Bu syujet orqali har qanday egrilik albatta yomon oqibatlar bilan tugashi muqarrarligi bolaga hayotiy misollar bilan tushuntirib beriladi. She’riy kitoblar kichik kitobxonga estetik zavq berishi bilan uning xotirasini mustahkamlaydi. Bolalar she’r yod olishi bilan xotirasiga ko‘plab badiiy misralar saqlana boshlaydi. Topishmoqlar topqirlikka chorlasa, tezaytishlar nutqni rivojlantiradi. Topishmoq xalq og‘zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri bo‘lib, unda xalq zukkoligi aks etadi. Sifati keltirilgan narsa-buyum nomi keltirilgan ta’rifga berkitiladi. Tezaytish nutqni ravonlashtiruvchi vosita bo‘lib, bo‘g‘inlar ketma-ketligiga ahamiyat qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizov A.H. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayoning sotsiologik tahlili sots.f.nom. dissertatsiya Avtoreferati. – Toshkent: 2010.30 b.

2. Chinniyeva S.A. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – Toshkent: TDMI, 2007. – 48 b. https: //phoenixpublication.

3. Ibraimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Shaffof. 2023. – 415 b.

4. A.Avloniy “Tanlangan asarlar”. – T.: Zabarjadmedia, 2022.

5. Ibraimov X., Quronov M. “Umumiy Pedagogika”. –T.: Shaffof 2023.

6. Duygu Yaman “Kitob mutolaasining bola ruhiyatiga ta’siri” “Yosh avlodda kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirishning istiqbolli tajribalari. To‘plam: – T.: Shaffof, 2025.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.